Atoqli huquqshunos olim H. Odilqoriyev "fuqarolik jamiyati" va "jamiyat" tushunchalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik va jiddiy farqlar ham mavjudligiga e'tibor qaratib, "Jamiyat odamlar o'rtasidagi munosabatlar majmui sifatida o'z rivojlanishining ma'lum yetuk bosqichida va muayyan sharoitlardagina fuqarolik jamiyatiga aylanadi", deb ta'kidlaydi. Jamiyat aynan fuqarolik degan sifatga ega bo'lishi uchun bir qancha xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Bu borada huquq, jamiyat va siyosat kabi sohalarida ijod qilayotgan olimlar turlicha fikr bildirib o'tishadi².

Xususan, B. Latipov fuqarolik jamiyati institutiga ilmiy ta'rif berish kerak degan yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, "Fuqarolik jamiyati instituti — odamlarning fuqarolik jamiyatiga xos ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish, shunday jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi qadriyatlar, qoidalar va xulq-atvor normalari asosida me'yorlangan dunyoqarash, ong, madaniyat, ma'naviy-axloqiy vaziyatni qaror toptirish, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash hamda jamiyatni demokratik tarzda tashkillashtirish funksiyalarini bajarishga yo'naltirilgan mustaqil ijtimoiy uyushmalar yig'indisidir"³.

F. Otaxonov fikricha, "Fuqarolik jamiyati — insonparvar demokratik huquqiy davlat mavjud bo'lgan, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari yuksak darajada ta'minlangan jamiyat"⁴.

CIVICUS global ittifoqi "fuqarolik jamiyati"ni "oila, davlat va bozor tashqarisidagi maydon, individual va jamoaviy harakatlar, umumiy manfaatlarini ilgari surish hamda tashkilotlar va muassasalar tomonidan yaratilgan makon" sifatida ta'riflaydi. Fikrimizcha, fuqarolik jamiyati inson huquqlari va manfaatlari asosida shaxs — jamiyat — davlat munosabatlari organik birlikka aylangan hamda ongli va ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan jamiyat hisoblanadi⁵.

Ya. Ollamov fuqarolik jamiyati va davlat o'zaro munosabatlarning quyidagi uchta barqaror modelini ajratib ko'rsatadi:

1. davlat fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy erkinlikka bo'lgan intilishini bostirganda, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlar qarama-qarshilikda bo'ladi (bunday munosabatlar avtoritar va o'tish rejimlariga xos);

2. agar davlat fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy erkinlikka intilishini bostirsa va xususiy sohani to'liq nazorat qilishni istasa, amaliyotda bu juda qiyin kechadi. Ijtimoiy munosabatlarning bunday buzilishi natijasida fuqarolik jamiyati va uning barcha institutlari boshqaruv obyektiga aylanadi;

3. agarda davlat fuqarolik jamiyati irodasini ifoda etsa, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar adolatli qonunlar asosida tartibga solinadi⁶.

Huquqshunos olim Sh. Yakubov fikricha, fuqarolik jamiyati institutlari o'z dasturiy maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun davlat budjetidan moddiy mablag' olishda, o'z maqomi va siyosiy maydondagi nufuzini yuksaltirishda ijtimoiy sheriklik institutidan oqilona foydalanishlari lozim⁷.

Bu borada A. Toshqulov Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida "Davlat hokimiyati organi bilan birga jamiyat ham rivojlanishi kerak. Faqat davlat strukturasi rivojlanaversa, muvozanat buziladi. Fuqarolik jamiyati, xususiy sektor ham rivojlanishi lozim. Yaxshi kadrlar xususiy sektorga ham kerak", degan fikrlari juda o'rinnidir⁸.

1 Gillmor, D. (2004). We the Media: Grassroots Journalism By the People, For the People. O'Reilly Media.

2 Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. X.T. Odilqoriyev — Toshkent:Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. — B. 154.

3 Latipov B. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini takomillashtirish / yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. Toshkent — 2019., 24-bet.

4 Otaxonov F. Konstitutsiya va jamoatchilik nazorati // Qonunchilik muammolari axborotnomasi — Byulleten problem zakonodatelstva — Bulletin of legislative problems. 2022-yil, 4-son, — B. 19.

5 <https://baselgovernance.org/blog/key-takeaways-transparency-internationals-new-guide-civil-society-and-anti-corruption>

6 Ya. Ollamov. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari: o'zaro munosabatlarda murojaatlarning o'rni, jamoatchilik nazoratining roli va murojaatlar bilan ishlashni takomillashtirish muammolari (Monografiya). — T.: "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2021. — B. 63.

7 YakubovSh.U. Ijtimoiy sheriklik — davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorligining zamonaviy shakli sifatida // O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining axborotnomasi, 2013. 3-son. —B. 35.

8 O'zbekiston Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish bo'yicha Farmoni va qarori"ning mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani. // URL: <https://t.me/SevaraJournalist/8416>



Fikrimizcha, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi munosabatlar konseptual nuqtayi nazardan davlat instituti qaysi funksiyalarni amalga oshirishi, davlat funksiyalarining aniq chegarasi va jamiyatning yo yoki bu sohasiga aralashish emas, balki amalga oshiriladigan davlat siyosati ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishga bog'liq. H. Odilqoriyev "An'anaviy jamiyat" va "Fuqarolik jamiyati" o'rtasidagi farqli jihatlarni tadqiq etar ekan, "Fuqarolik jamiyati insonlarning xususiy hayot sohasidagi mulkiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, diniy, axloqiy va boshqa manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi institutlarni (uyushmalar, ta'lim muassasalari, jamoat birlashmalari, o'zini-o'zi boshqarish idoralari) va mexanizmlarni qamrab oladi", deb to'g'ri ta'kidlaydi⁹.

"Aralash iqtisodiyot" nazariyasi asoschisi Albert Eberxard Fridrix Sheffle "jamiyatning organik birligi o'zaro ta'sir qiluvchi subyektiv iroda va baholarning "jamoaviy ong"ga, "xalq ruhiga" aylanishi natijasida vujudga kelishi", deb baholab, bozor munosabatlarining subyektlarini uchta sektorga ajratadi. Bunda olim fuqarolik jamiyati institutlarini "uchinchi sektor"ga kiritadi. Rus olimi Ye. Yegorova ham ijtimoiy munosabatlarni 3 ta sektorga ajratib, uni "davlat", "tijorat" va "nodavlat" tarzida tasniflaydi¹⁰.

Fikrimizcha, bugungi kunda odatiy jamiyatning "virtual jamiyat" yoki "axborot jamiyati" tushunchalari ishlatilayotgani, xalqaro munosabatlarda davlatlar ustunligidan voz kechish va inson huquqlariga ustunlik berish maqsadida "global fuqarolik jamiyati" tushunchalarining qo'llanilishi ham jamiyatni 3 ta sektorga bo'lish nisbiy ekanligini anglatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda fuqarolik jurnalistikasi va gender masalalarini o'rganishda sifatli tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda raqamli platformalardagi ochiq manbalar asosida to'plandi. Olingan materiallar qiyosiy, diskursiv va tematik tahlil usullari orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fuqarolik jurnalistikasi — axborot tarqatish jarayonida oddiy fuqarolarning faol ishtirokini nazarda tutuvchi media amaliyotidir. U jamiyatdagi voqea-hodisalarni kuzatish, tahlil qilish, yoritish va ularga munosabat bildirish orqali fuqarolarning axborot aylanmasidagi subyekt sifatidagi o'rnini mustahkamlaydi. Fuqarolik jurnalistikasi an'anaviy jurnalistikadan farqli ravishda, fuqarolarning mustaqillikka asoslangan o'z fikrini ifoda etish huquqiga tayanadi va demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Fuqarolik jurnalistikasiga turlicha nazariy yondashuvlar mavjud. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin¹¹:

Demokratik yondashuv — bu nazariyaga ko'ra, fuqarolik jurnalistikasi demokratik jamiyatdagi ochiqlik, fikr erkinligi va jamoatchilik nazoratini ta'minlash vositasidir. Jey Rozen (Rosen, 2008) ta'kidlaganidek, "jurnalistika endi ko'zlovchi emas, ishtirokchi jamoa"dir. Bu yondashuvda jurnalistika "tomoshabin" emas, "hammuallif" jamoatchilikka tayanadi¹².

Ishtirok etish nazariyasiga ko'ra, fuqarolik jurnalistikasi — bu axborot olish emas, balki yaratish jarayonidagi ishtirokdir. Mazkur yondashuvda har bir fuqaro axborot manbai, tahlilchisi va tarqatuvchisi sifatida qaraladi. Mazkur nazariya Paulo Freirening "muhokamaga asoslangan ma'lumot berish" modeliga tayanadi¹³.

Media plyuralizmi va konvergensiya nazariyasi — bu jamiyatda media maydoni kengaygani sari yangi ovozlari (massalar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar)ning yangicha platformalar orqali chiqishi tabiiy jarayondir. Fuqarolik jurnalistikasi media plyuralizmini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jurnalistikasi rivoji bir necha bosqichda kechgan bo'lib, quyida tarixiy va texnologik jarayonlarga asoslangan bosqichlar keltiriladi.

1-bosqich: Avvalgi aloqa vositalari (1960–1990-yillar). Hali internet ommalashmagan davrda radio havasmandlari, "qoraqalam gazetalar", mahalliy ovoqli byulletenlar fuqarolik axborot faoliyatining ilk shakllari sifatida namoyon bo'lgan. Bu davrda fuqarolarning axborot tarqatishdagi ishtiroki chegaralangan, biroq faoliyat mavjud edi.

2-bosqich: Internet va veb 2.0 texnologiyalarining paydo bo'lishi (1990–2005). Internetning ommalashishi bilan bloglar, onlayn forumlar, shaxsiy veb-saytlar paydo bo'ldi. Mazkur bosqichda fuqarolar mustaqil axborot manbalari sifatida faollashdilar. Indymedia, OhMyNews (Janubiy Koreya), LiveJournal kabi platformalarda mustaqil fuqarolik axboroti paydo bo'ldi.

9 Bücher, Karl. "Schäffle." Zeitschrift Für Die Gesamte Staatswissenschaft / Journal of Institutional and Theoretical Economics, vol. 60, no. 1, 1904. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/40741690>. Accessed 2 Jan. 2023.

10 Yegorova Ye.V. Nekommercheskiye organizatsii v obshchestve: analiz osnovnykh problem vzaimodeystviya organov gosudarstvennoy vlasti i mestnogo samoupravleniya s nekommercheskimi organizatsiyami / Ye.V. Yegorova. — Tekst: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. — 2020. — № 23 (313). — S. 211–213. — URL: <https://moluch.ru/archive/313/71240/> (data obrasheniya: 02.01.2023).

11 Gillmor, D. (2004). We the Media: Grassroots Journalism By the People, For the People. O'Reilly Media.

12 Rosen, J. (2008). The People Formerly Known as the Audience. PressThink.

13 Couldry, N., & Curran, J. (2003). Contesting Media Power: Alternative Media in a Networked World. Rowman & Littlefield.

3-bosqich: Axborot tarqatishning diversifikatsiyasi (2000–2010). Internetda bloglar, onlayn gazetalar, YouTube kabi videoplatformalar, Wikipedia kabi kraudsorsing resurslarining ommalashuvi fuqarolarga yangi imkoniyatlar ochdi. Ayniqsa, OhMyNews singari koreyalik platformalarda fuqarolar kontent muallifi sifatida qatnashdi.

4-bosqich: Ijtimoiy tarmoqlar bosqichi (2010–2020). Facebook, Twitter, Instagram singari platformalarda fuqarolar ijtimoiy adolat, siyosiy voqealar va jamoat muammolariga doir mustaqil postlar orqali jamoaviy fikr shakllantiruvchiga aylanishdi. Bu bosqichda “viral kontent” va “xeshteg fuqarolik harakati” (masalan, #BlackLivesMatter, #ArabSpring)ning ta’siri kuchaydi.

5-bosqich 2020-yildan bugungi kunga qadar bo’lgan davrni o’z ichiga oladi va bevosita mediatexnologiyalar bilan integratsiya qilingan holda qo’llaniladi. Fuqarolik jurnalistikasida sun’iy intellekt, raqamli tahlil, mobil jurnalistika, dron va live-striming texnologiyalari keng qo’llanmoqda. Shu bilan birga, feyk yangiliklar, media savodxonlik va axborot xavfsizligi kabi muammolar ham ko’tarilmoqda.

Raqamli davrda fuqarolik jurnalistikasi axborot muhitini demokratiklashtirishga, axborotdagi monopoliyani yo’q qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu faoliyatning o’ziga xos xatarlari ham mavjud: axborot manbalarining aniq emasligi, manipulyativ kontent, yolg’on ma’lumotlar tarqalishi (mis-/disinformation) va boshqalar. Fuqarolik jurnalistikasining media ekotizimidagi o’rnini aniqlashda quyidagi mezonlar asosiy hisoblanadi:

- axborot tarqatishdagi shaffoflik va faktlarga asoslanganlik;
- ijtimoiy muammolarga munosabat bildirish;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- huquqbuzarlik holatlarini fosh etish (watchdog funksiyasi).

Internet va mobil texnologiyalar fuqarolik jurnalistikasining rivojlanishini jadallashtirdi. Ayniqsa, bloglar, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, X (Twitter), Instagram, YouTube va h.k.) orqali fuqarolar axborot tarqatishda rasmiy jurnalistlardan kam bo’lmagan darajada ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’lmoqda.

Rosen (2008) ta’riflaganidek, fuqarolik jurnalistikasida “har bir inson jurnalist”dir¹⁴. Bu tushuncha axborot tarmoqlaridagi iyerarxiyani buzib, axborotning markazlashmagan, tarqoq va ommaviy shaklda tarqalishini ta’minlaydi.

So’nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo’llab-quvvatlash, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ish olib borilmoqda. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o’rta muddatga qaratilgan istiqbollarini belgilab olish maqsadida 2021–2025-yillarga mo’ljallangan konsepsiya tasdiqlandi. Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga jalb qilishning g’oyaviy asoslari belgilangan. Strategiyaning 1, 11, 12, 20, 83, 84-maqсадlari bevosita yoki bilvosita mazkur mavzuga bag’ishlangan¹⁵.

Shuningdek, bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga erishish bo’yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishdan tortib, ularni amalga oshirish hamda hisobot berishgacha bo’lgan barcha bosqichlarga jalb etilishini ta’minlash dolzarb ahamiyatga ega.

Butun dunyoda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishi yangi tendensiyalarga yuz tutmoqda. Birinchidan, dunyoning ko’plab mintaqalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish natijasida “Raqamli jamiyat”ning yangi shakllari paydo bo’lmoqda. Raqamli jamiyatda ijtimoiy o’zaro ta’sirlar soddalashtiriladi, axborot shaffofligi oshadi va atrof-muhit xarajatlari kamayadi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatining rivojlanish tendensiyalari milliy davlatlar chegaralaridan tashqariga chiqib, xalqaro hayotning bir qismiga aylanib, “global fuqarolik jamiyati” tushunchasi tobora hayotimizga kirib kelmoqda.

Uchinchidan, yana bir muhim tendensiya — tadbirkorlar uyushmalarining fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirib, davlat va jamiyatning mafkuraviy-g’oyaviy hayotiga ta’sir o’tkazishga intilishi kuchayishi kuzatilmoqda.

Bugunga qadar “fuqarolik jamiyati institutlari” tushunchasi yuzasidan hozircha yakdil fikrga kelingani yo’q. Amaldagi qonunchilikda ham mazkur atamaning mohiyatini ochib beradigan muayyan ta’rif mavjud emas. Uyushish huquqi keng ma’noli tushuncha bo’lib, u qadimdan shaxsning insonga xos bo’lgan tabiiy ehtiyoji sanaladi. Sharq uyg’onish davrining mutafakkiri Abu Nasr Forobiy inson tabiati yetuklikka erishmoq uchun ko’p narsalarga muhtoj bo’lishi, uning bir o’zi bunday narsalarni qo’lga kiritmasligi sababli kishilik jamoasiga ehtiyoj tug’ilishini qayd etgan¹⁶.

14 Rosen, J. (2008). Saving Journalism. PressThink Blog.

15 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

16 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nom. Xalq merosi nashriyoti. 1993. – B. 18–19.



Sh.U. Yakubovning hisoblashiga ko'ra, mazkur fenomen 2018-yilning 1-sentyabriga qadar amalda bo'lib turgan 11 ta qonunda "fuqarolik jamiyati instituti" tahririda qo'llanilgan. J. Shirinovning ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasining 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarida fuqarolik jamiyati instituti iborasi ishlatilgan.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati mamlakat Prezidenti va hukumatining 200 dan ortiq hujjatlari, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi asosida istiqbolli vazifalar belgilandi. Ko'p yillardan buyon fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan bo'lib, lekin normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur institutning huquqiy maqomi belgilanmagan, shuningdek, ularning faoliyati mazmuniga oid huquqiy kafolatlar belgilanmagan edi¹⁷.

Fuqarolik jamiyati instituti tushunchasi qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilanishi borasida ko'plab olimlar tomonidan turlicha fikr bildirilgan. Xususan, J. Shirinov ham o'z tadqiqotlarida mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib, "fuqarolik jamiyati institutlari" tushunchasini "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida aks ettirish lozimligini qayd etib o'tadi¹⁸.

Fikrimizcha, xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanishi lozim. Fikrimizning isboti sifatida aytish mumkinki, BMT Inson huquqlari kengashining rasmiy hisobotida (2017-yil) fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurash, kambag'allikka qarshi kurash, global ochlikka qarshi kurash kabi muammolarni hal etish vositasi sifatida belgilangan. Shuningdek, Jahon bankining "Fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan maslahatlashuv" ko'rsatmasida "jamoat birlashmalari" instituti o'rniga "fuqarolik jamiyati instituti" tushunchasini qo'llash tavsiya qilingan. Shuningdek, Litva, Bolgariya, Ruminiya va Bolgariya konstitutsiyalarida fuqarolik jamiyati va uning institutlari, ularning erkin rivojlanishi uchun imkoniyat yaratish to'g'risidagi normalar mustahkamlangan.

Shuningdek, 2006-yilda BMT tomonidan Jons Xopkins universitetida Fuqarolik jamiyati tadqiqotlari markazi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda nodavlat notijorat tashkilotlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tayyorlash bo'yicha standartlar va ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan "Milliy hisobotlar tizimida nodavlat notijorat tashkilotlari uchun qo'llanma" yaratildi. Mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadi milliy hisobotlarda va umuman iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni tuzishda ko'pincha ko'rsatilmaydigan, tobora ahamiyati ortib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari bo'yicha ma'lumotlarning sifatini oshirishdan iborat edi.

Fuqarolik jamiyatiga nisbatan amerikkacha yondashuv shu sohada eng mashhur va keng tanilgan Merilend shtatining Baltimor shahrida joylashgan Jon Xopkins universitetining "The Comparative Nonprofit Sector Project" loyihasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu loyihadan kelib chiqib, NNTning faoliyat turlari 12 ta yo'nalish bo'yicha belgilandi: 1) madaniyat va dam olish; 2) ta'lim va tadqiqot; 3) sog'liqni saqlash; 4) ijtimoiy xizmatlar; 5) atrof-muhitni himoya qilish; 6) hududiy hamjamiyatlarni rivojlantirish; 7) inson huquqlarini himoya qilish; 8) filantropik uchun vositachilik qilish; 9) xalqaro; 10) diniy; 11) kasbiy uyushmalar, biznes va kasaba uyushmalari; 12) boshqa yo'nalishlar.

Mazkur loyiha mezonlari doirasida 35 ta mamlakatda (16 ta rivojlangan, 14 ta rivojlanayotgan, 5 ta o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan) NNTning strukturasi, hajmi, ular faoliyatidagi muammolar va natijalarga doir tadqiqotlar olib borilib, ularning yakunlari natijasi o'laroq quyidagilar aniqlandi. Bu mamlakatlarda uchinchi sektorning YAIMdagi hissasi 1,3 trillionni tashkil etgan. Nodavlat sektorda deyarli 40 million kishi (shundan 20 million kishi ish haqi olib ishlagan) faoliyat yuritib, bu ko'rsatkich 35 ta mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil etgan¹⁹.

Gender masalalari fuqarolik jurnalistikasi doirasida muhim nazariy-metodologik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki fuqarolik media muhitida ayollar va boshqa gender guruhlarining ishtiroki nafaqat axborot tarqatishda, balki media kontentni shakllantirishda ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar gender va OAV muammolarini kompleks yoritish zarurligini ta'kidlab keladi. Ayollar faolligi yuqori bo'lgan platformalarda gender tengligi, diskriminatsiya, zo'ravonlik, huquqbuzarlik va ijtimoiy adolat masalalari ustuvor mavzulardan biriga aylanmoqda.

Fuqarolik jurnalistikasini tahlil qilishda quyidagi nazariy paradigmalar asosiy o'rin tutadi. Ijtimoiy konstruktivizm — axborotning haqiqat sifatida emas, balki ijtimoiy jihatdan qurilgan narsa sifatida ko'rilishidir. Fuqarolik jurnalistlari orqali turli voqealarning talqin etilishidagi farqlar ushbu yondashuv asosida izohlanadi. Fuqarolik jurnalistikasi va gender nuqtayi nazaridan ijtimoiy konstruktivizm ahamiyati quyidagilarda aks etadi:

Gender rollari media orqali qayta "konstruksiya" qilinishi. Masalan, blogger ayollar yoki faol fuqarolik jurnalist ayollar ijtimoiy tarmoqlarda gender tasavvurlarini qayta shakllantirishi mumkin.

17 Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2021-y., 06/21/6181/0182-son.

18 Shirinov J. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi va tarkibi /Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2018. – № 1. – B. 24–28.

19 Sanovich S. Issledovaniya grajdanskogo obshchestva i NKO v Yevrope i SSHA (kratkiy obzor). Material podgotovlen spetsialno dlya informatsionno-analiticheskogo portala "Socpolitika.ru" // http://www.socpolitika.ru/rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.

· Fuqarolik jurnalistikasida subyektivlik: fuqarolik jurnalistlari o'z tajribasi, shaxsiy qarashlari asosida axborotni yetkazishadi. Demak, ularning axborotlari ham "ijtimoiy haqiqat"ni qayta yaratadi.

· Normalarning tanqidiy tahlili: fuqarolik jurnalistikasi ko'pincha rasmiy mediada (masalan, ayollarga nisbatan stereotiplar) tasvirlarni tanqid qiladi va yangi ma'nolarni taklif qiladi.

Feministik nazariyalar — jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, siyosat, madaniyat, til va media orqali shakllanadigan gender munosabatlari, ayollar roli, patriarxal tuzum ta'siri va tengsizlik masalalarini o'rganuvchi hamda tanqidiy tahlil qiluvchi ilmiy nazariyalar majmuasidir. Feministik nazariyalarning asosiy maqsadi — jamiyatda ayollarga nisbatan mavjud bo'lgan salbiy stereotiplarni fosh qilish, teng huquq va imkoniyatlar masalasini yoritish hamda ayollar subyektiv tajribasini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishdir. Media muhitda gender muvozanatini, ayollar ishtirokining xos xususiyatlarini ochish va mujassamlashtirishga yo'naltirilgan. Bu nazariyalar OAVda ayollarning reprezentatsiyasi, faolligi va ta'sirini o'rganishda qo'l keladi.

Feminizm xususida gap ketar ekan, uning nazariy asosiy yo'nalishlariga to'xtalib o'tish lozim:

1. Liberal feminizm — ayollar va erkaklar imkoniyatlarining tengligini talab qiladi. Asosiy diqqat markazida huquqiy, siyosiy va ta'lim sohalarida tenglik masalasi turadi. Liberal feministlar patriarxal tizimni isloh qilish orqali tenglikka erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

2. Marksist feminizm — iqtisodiy tizim ayollarning ezilishining asosiy sababi, deb hisoblaydi. Ayol mehnatining ekspluatatsiya qilinishi va uning qadsizlanishiga alohida e'tibor qaratadi hamda gender muammolarini sinfiy muammolar bilan bog'laydi.

3. Radikal feminizm — patriarxatni ayollar ezilishining ildizi sifatida baholaydi. Tanani nazorat qilish, zo'ravonlik, reproduktiv huquqlar, pornografiya, nikoh instituti kabi mavzular radikal nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalish erkaklar hukmronligidagi tizimni tubdan o'zgartirishni talab qiladi.

4. Sotsial feminizm — marksist va radikal feminizm g'oyalarini birlashtiradi. Ayollar kamsitilishi iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar o'zaro ta'sirida sodir bo'lishini ta'kidlaydi.

5. Poststrukturalist (postmodern) feminizm — til, ijtimoiy ma'nolar va diskurslar ayollar obrazini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Judit Batler va boshqa olimlar "gender is performative" (gender ijro etiladigan jarayondir) degan g'oyani ilgari surib, gender va jins o'rtasidagi tabiiy bog'liqlikni tanqid qiladilar²⁰.

6. Qora tanli va postkolonial feminizm — ayollar faqat jinsiga emas, balki irqi, millati, tabaqasi va madaniy kelib chiqishiga qarab ham turli darajada kamsitilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bell Hooks, Chimamanda Ngozi Adichie kabi adiblar va faollar bu yo'nalishda muhim hissa qo'shgan²¹.

7. Interseksional feminizm — kimligi bir nechta yo'nalishda kross-kamsitishga duchor bo'lgan ayollar tajribasiga yetarli e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Ayol kishi nafaqat "ayol" sifatida, balki "qora tanli", "kambag'al", "immigrant", "aholiga kam xizmat ko'rsatiladigan hududda yashovchi" shaxs sifatida ham turli diskriminatsiyalarga uchraydi.

Bugun media ayollar haqidagi tasvirlarning asosiy manbai hisoblanadi. Media feministik tahliliga ko'ra, ayollar ko'pincha obyekt sifatida, yosh, go'zallik va jufti uchun yashaydigan shaxs sifatida yoki zo'ravonlik qurboni sifatida tasvirlanadi. Feministik media tadqiqotlari bu obrazlarni tanqid qiladi va ayollarning ovozini faollashtiruvchi platformalarni (masalan, fuqarolik jurnalistikasi, bloggerlik) qo'llab-quvvatlaydi. Feministik yondashuv hali ham ko'pchilik uchun yangilik sanaladi, biroq ayollar faolligi ortib borayotgan bugungi sharoitda u dolzarb ahamiyatga ega. Ayol bloggerlar, fuqarolik jurnalistikasida faol ayollar, TikTok va Instagram orqali o'z fikrini bayon qiluvchi ayollar orqali ijtimoiy rollar va intizorliklar qayta ko'rib chiqilmoqda. Feministik nazariya ushbu jarayonlarni tahlil qilishda mustahkam ilmiy asos hisoblanadi.

Media ekologiyasi nazariyasi esa ommaviy axborot vositalari va texnologiyalarining inson tafakkuri, madaniyati hamda ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganuvchi interdisiplinar soha hisoblanadi. Ushbu nazariya XX asrning ikkinchi yarmida kanadalik olimlar Marshall Maklyuen²² va Neyl Postman²³ tomonidan shakllantirilgan. Media ekologiyasida "media" faqat axborot vositasi emas, balki ma'lumotni qabul qilish, tafakkur qilish va jamiyatdagi voqelikni shakllantirish usuli sifatida qaraladi. Ya'ni, media — bu muhit (environment), inson hayotini qamrab oluvchi ekotizimdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, yangi axborot texnologiyalari va media formatlarining paydo bo'lishi inson tafakkuri va ijtimoiy tuzilmalarga tubdan ta'sir ko'rsatadi. Maklyuenning mashhur iborasi — "The medium is the message" ("Xabar — bu vositaning o'zidir") media ekologiyasi nazariyasining asosiy g'oyasini ifoda etadi²⁴. Unga ko'ra, yangi texnologiyalar faqat ma'lumotni tashuvchi vosita emas, balki axborot targ'ibotining mazmuniga, shakliga va jamiyatdagi ta'siriga

20 Butler, J. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.

21 Hooks, B. (1981). Ain't I a Woman? Black Women and Feminism. South End Press.

22 McLuhan, Marshall. Understanding Media: The Extensions of Man. (1964)

23 Postman, Neil. Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business. (1985) — Media muhitning ijtimoiy fikr va madaniyatga ta'sirini tahlil qiluvchi nazariy asos.

24 McLuhan, Marshall. Understanding Media: The Extensions of Man. (1964)



ham ta'sir qiladi. Masalan, raqamli media insonning axborotni qabul qilish uslubini tezkorlik va vizuallikka yo'naltiradi.²⁵

Neyl Postman esa media ekologiyasiga tanqidiy qarash olib kirgan. U o'zining "Technopoly" va "Amusing Ourselves to Death" asarlarida televideniye va raqamli medianing madaniyatning intellektual darajasiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini yoritadi. Postmanning fikricha, media insoniyatni chuqur fikrlashdan uzoqlashtirib, ko'ngilocharlikka burib yuborishi mumkin. Media ekologiyasi nazariyasi media va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishda fenomenologiya, strukturalizm, semiotika, tizimli tahlil, tarixiy tahlil, narrativ tahlil kabi uslubiy yondashuvlardan foydalanadi. Shu boisdan bu nazariya jamiyat, madaniyat, siyosat, falsafa va psixologiya sohalarini bilan chambarchas bog'liq. Media ekologiyasi nazariyasi fuqarolik jurnalistikasining shakllanishi va undagi gender dinamikasini tushunishda samarali nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, raqamli platformalar — bloglar, YouTube, Instagram, Telegram, TikTok va boshqalar — media muhitini o'zgartirib, ayollar va marginal guruhlarining ovozi eshittirishiga sharoit yaratdi. Shu orqali traditsion patriarxal media muhitiga qarshi turli alternativ axborot maydonlari vujudga keldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik jurnalistikasi raqamli media muhitida yangi demokratik axborot maydonlarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Maxsus bilim va jurnalistikda rasmiy maqomga ega bo'lmagan fuqarolar tomonidan axborot tarqatilishi, muammolarga jamoaviy munosabat bildirilishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan harakatlar fuqarolik jurnalistikasining asosiy vazifalaridandir. Bunday faoliyatda gender muvozanatini ta'minlash ham dolzarb masalalardan biriga aylangan. Jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida fuqarolik jurnalistikasi jamoat fikrini shakllantirish, institutsional ommaviy axborot vositalariga alternativ pozitsiya bildirish, ijtimoiy muammolarni keng muhokama qilish va faol fuqarolikni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda gender masalalari muhim ahamiyat kasb etadi, zero gender tengligi va ijtimoiy adolat fuqarolik faolligining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jurnalistikasi raqamli muhitda demokratik g'oyalarni ilgari surish, ayollar va marginal guruhlarining ovozi eshittirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Jamoaviy axborot vositalari (Facebook, YouTube, Telegram va boshqalar) orqali gender rollari, ijtimoiy normalar va stereotiplar tanqidiy tahlil qilinayotgani fuqarolik pozitsiyasining kuchayishiga olib kelmoqda. Mavzuni keng qamrab olgan nazariy yondashuvlar — ijtimoiy konstruktivizm, media ekologiyasi nazariyasi, feministik media nazariyalari, axborot jamiyati nazariyasi va boshqalar — fuqarolik jurnalistikasi va gender munosabatlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni anglashga yordam beradi. Xususan, media ekologiyasi nazariyasi raqamli muhitda ma'lumotlar oqimi, platformalar ta'siri va vositachilik tabiati orqali gender ifodasi va jurnalistik amaliyotni yangicha talqin qilish imkonini yaratadi.

Gender masalalarining fuqarolik jurnalistikasidagi namoyon bo'lishi jamiyatdagi umumiy gender munosabatlarining mediadagi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa feministik nazariyalar, ijtimoiy konstruktivizm va media ekologiyasi kabi nazariy yondashuvlarni tadqiqot metodologiyasiga jalb etishni taqozo etadi. Feministik nazariya fuqarolik axborot maydonida ayollar ovozi yetarli yoki yetarsizligi, ularga nisbatan ijtimoiy stereotiplarning qayta ishlab chiqilishi va tarqalishini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy konstruktivizm esa gender tushunchalarining jamiyat va media orqali shakllanishini tushunishda samaralidir. Media ekologiyasi nazariyasi esa raqamli texnologiyalar ta'sirida gender ifodalanishi va axborot vositalari orqali ko'rinishini makro darajada anglashga yordam beradi. Shu jihatdan, fuqarolik jurnalistikasi va gender masalalarini tahlil qilishda ko'p paradigmali, murakkab yondashuv talab etiladi.

Olingan xulosalardan kelib chiqqan holda ushbu fasl bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- fuqarolik jurnalistikasi sohasida ayollar ishtirokiga oid milliy va xalqaro tajribalarni chuqurroq o'rganish;
- raqamli media muhitida gender tahlili uchun feministik media tadqiqotlarini keng jalb qilish;
- O'zbekistonda fuqarolik jurnalistlarining jinsga oid ifodalarni qanday yoritishiga doir tahlillarni amaliyotga joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gillmor, D. (2004). *We the Media: Grassroots Journalism By the People, For the People*. O'Reilly Media.
2. Rosen, J. (2008). *The People Formerly Known as the Audience*. PressThink.
3. Couldry, N., & Curran, J. (2003). *Contesting Media Power: Alternative Media in a Networked World*. Rowman & Littlefield.
4. Couldry, N., & Curran, J. (2003). *Contesting Media Power: Alternative Media in a Networked World*. Rowman & Littlefield.

25 Postman, Neil. *Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business*. (1985) — Media muhitning ijtimoiy fikr va madaniyatga ta'sirini tahlil qiluvchi nazariy asos.



5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А. Қодирий ном. Халқ мероси нашриёти. 1993. – Б. 18–19.
7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.03.2021 й., 06/21/6181/0182-сон.
8. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. Х.Т. Одилқориев – Тошкент: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022 й. – Б. 154.
9. Латипов Б. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш / юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун дисс. Тошкент – 2019., 24-бет.
10. Отахонов Ф. Конституция ва жамоатчилик назорати // Qonunchilik muammolari axborotnomasi – Бюллетень проблем законодательства – Bulletin of legislative problems. 2022 йил, 4-сон, – Б. 19. <https://baselgovernance.org/blog/key-takeaways-transparency-internationals-new-guide-civil-society-and-anti-corruption>
11. Я. Олламов. Давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари: ўзаро муносабатларда мурожаатларнинг ўрни, жамоатчилик назоратининг роли ва мурожаатлар билан ишлашни такомиллаштириш муаммолари (Монография). – Т.: “IJOD-PRESS” нашриёти, 2021. – Б. 63.
12. Якубов Ш.У. Ижтимоий шериклик – давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ўзаро ҳамкорлигининг замонавий шакли сифатида // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академиясининг ахборотномаси, 2013. 3-сон. – Б. 35.
13. Ўзбекистон Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурий ислохотларини амалга ошириш бўйича Фармони ва қарори”нинг мазмун-моҳиятига бағишланган матбуот анжумани. // URL: <https://t.me/SevaraJournalist/8416>
14. McLuhan, Marshall. Understanding Media: The Extensions of Man (1964).
15. Postman, Neil. Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business (1985).
16. Bücher, Karl. “Schäffle.” Zeitschrift Für Die Gesamte Staatswissenschaft /Journal of Institutional and Theoretical Economics, vol. 60, no. 1, 1904. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/40741690>. Accessed 2 Jan. 2023.
17. Егорова Е.В. Некоммерческие организации в обществе: анализ основных проблем взаимодействия органов государственной власти и местного самоуправления с некоммерческими организациями / Е.В. Егорова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 23 (313). – С. 211–213. – URL: <https://moluch.ru/archive/313/71240/> (дата обращения: 02.01.2023).
18. Ширинов Ж. Фуқаролик жамияти институтлари тушунчаси ва таркиби /Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2018. – № 1. – Б. 24–28.
19. Санович С. Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий об зор). Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала “Socpolitika.ru” // http://www.socpolitika.ru/rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.
20. Butler, J. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.
21. Hooks, B. (1981). Ain’t I a Woman? Black Women and Feminism. South End Press.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100